**Farg‘onaazot** aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz | fargonaazot.uz | info@azot.uz
www.azot.uz | AO Farg‘onaazot | t.me/fargona_azot

7-son (1730)
2024-yil,
25-OKTABR.

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta



# "21-OKTABR O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI" JAMIYATDA KENG NISHONLANDI

**"Farg‘onaazot" aksiyadorlik jamiyatida davlat tilimizga, uning rivoji, nufuziga sezilarli darajada e’tibor qaratilib kelinadi. Misol tariqasida korxonaning barcha ichki hujjatlari, chiquvchi xatlari, yozishmalarini lotin tiliga asosalangan o‘zbek alifbosida yuritilishi, tarkibiy bo‘linmalardagi banner va stendlarni, devoriy gazetalarni to‘liq o‘zbek tiliga o‘girilganligi hamda mas’ul xodimlar hamda rahbarlarni o‘zbek tili bo‘yicha o‘qitilishini sanab o‘tsak bo‘ladi. Shuningdek, ona tilimiz tantanasi kuni ham har yili munosib kutib olinadi.**








Bayramni yuqori darajada tashkillash va nishonlash maqsadida korxona boshqaruvi raisi buyrug‘i tasdiqlanib, tadbirlar o‘tkazildi. Avvaliga jamiyatning faollar zalida Davlat tilimiz tashkil topganligining 35 yilligi nishonlandi. Tadbirga Farg‘ona viloyat hokimining davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sohibjamol Tongotarova, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Farg‘ona viloyati boshlig‘i Nizomiddin Qo‘ldoshev hamda Ahmad Farg‘oniy nomidagi Farg‘ona viloyat axborot-kutubxona markazi rahbari Husniya Shermatovalar tashrif buyurdilar.

Soha mutaxassislari bayram tadbirida tilga e’tibor, ehtirom, davlat tilimiz nufuzini yanada oshirish borasida so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, Prezident qaror va farmonlari, tilimiz fidoiylari va boshqa mavzuga oid masalalarda so‘z yuritishdi.

Korxona rahbari Dilshod Mannonov o‘z nutqida barchani bayram bilan tabriklab, tilimiz nufuzini oshirish borasida mamlakatimizda, shuningdek, jamiyatimizda tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilayotganligi, Davlatimiz rahbari tomonidan bu sohada olib borilayotgan islohotlar tilimizga bo‘lgan e’tiborning yuqori cho‘qqisi ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Shu o‘rinda, yil sayin o‘zbek tili o‘zga millatlar tomonidan o‘rganilayotganligi, bu esa bizlar uchun katta faxr ekanligini aytib o‘tdi.

Tadbir so‘nggida tilimiz fidoiylari, viloyatimiz va mamlakatimizda davlat tili nufuziga o‘z hissalarini qo‘shib kelayotgan soha mutaxassislariga doimiy hamkorlik uchun korxona tomonidan Tashakkurnomalar va esdalik sovg‘alar topshirildi.

Shuningdek, bayram munosabati bilan ishchi-xodimlar o‘rtasida "Kitobxon xodim" ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Mazkur tanlovda tarkibiy bo‘linmalardan 18 nafar mehnatkashlar ishtirok etishdi.

Tanlov xodimlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u korxona boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan 3 bosqichda, ya’ni 1-shart "O‘zbek va Jahon adabiyotidan misralar", 2-shart "Asarlardan monolog", 3-shart "Men sevib o‘qigan asar" shartlari bo‘yicha o‘tkazildi.

Ishtirokchilardan oldindan tavsiya etilgan 5 ta kitoblar, Cho‘lponning "Kecha va kunduz", Iqbol Mirzoning "Bonu", Xolid Husayniyning "Ming quyosh shulasi", Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Djek Londonning "Hayotga muhabbat" asarlaridan uchta shart bo‘yicha javob berishlari talab etilib, javoblar to‘liq va aniqligiga qarab hakamlar hay’ati tomonidan nizom bo‘yicha baholab borildi.

To‘plangan ballar natijalariga ko‘ra, 1-o‘rinni Ishlab chiqarishni nazorat qilish va loyihalarni amalga oshirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi Akmaljon Xaydarov, 2- o‘rinni NO‘A va A sexi chilangari Odinaxon Maxmudova va 3- o‘rinni Markaziy kimyo laboratoriyasi kimyoviy tahlil laboranti Oydina Abduraximovalar egallab, korxona tomonidan qo‘yilgan 4 000 000 so‘m, 3 000 000 so‘m hamda 2 000 000 so‘m pul mablag‘lari hamda diplomlarni qo‘lga kiritdilar. Yuqori bal to‘plagan 7 nafar ishtirokchilar esa jamiyat Yoshlar ittifoqi Kengashi tomonidan kitoblar to‘plami hamda Faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**



# MILLIY SAYLOV QONUNCHILIGI MUSTAHKAMLANMOQDA




**Mamlakatimizda joriy yilning 27-oktabrida o‘tkaziladigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloviga qizg‘in hozirlik ko‘rilmoqda. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida belgilangan muddatlardan kelib chiqib, 26 - iyuldan Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo‘yicha saylov kampaniyasiga start berilib, Kalendar reja tasdiqlangan.**

Ushbu saylovlarda Konstitutsiyamiz va xalqaro saylov standartlariga binoan mamlakatimizning oliy davlat vakillik va qonun chiqaruvchi organi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tarkibi yangilanishi ta’minlanadi.

Yangi O‘zbekistonning milliy saylov qonunchiligi, saylov komissiyalari va saylovlarni o‘tkazish amaliyoti xalqqa, saylovchilarga yanada yaqinlashganini alohida ta’kidlayotgan xalqaro ekspertlarning fikri amalda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Yaratilayotgan qulayliklar, shart-sharoitlar eng avvalo, aziz va mukarram insonning manfaatlariga xizmat qilishi, insonning qalbini yanada yuksaltirishi zarur.

Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizning milliy saylov qonunchiligi, amaliyoti va saylov komissiyalari tizimidagi sifat o‘zgarishlari inson qadri har narsadan ulug‘ degan hayotbaxsh g‘oyaga mos ravishda takomillashib borayotganini ko‘ramiz. Eslaylik, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bundan besh yil avval milliy saylov qonunchiligiga oid beshta qonun va o‘nlab qonunosti hujjatlarini o‘zida mujassam etgan Saylov kodeksining qabul qilinishini saylov jarayoni ishtirokchilari ham, xalqaro ekspertlar ham qanday qizg‘in xayrixohlik bilan kutib olgan edi.

Bunday muvaffaqiyatlarning bosh omili – avvalo jamoatchilik fikri inobatga olinib, xalqimiz bilan birgalikda, maslahatlashib qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlardadir. Bu yangi tahrirdagi milliy Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va umumxalq referendumida qabul qilish jarayonida yanada yorqin namoyon bo‘ldi. Konstitutsiya tom ma’nodagi xalq muallifligidagi tarixiy hujjat bo‘lganini ahli dunyo keng e’tirof etdi.

*(Davomi 2-betda).*

# FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI DOIMIY TARZDA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA



**So‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyati uchun yaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslar va ularni amalga oshirish orqali nodavlat tashkilotlarining jamiyat hayotidagi roli, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishdagi ishtiroki kuchayib bormoqda.**

*(Davomi 2-betda).*

**Sanjarbek RAXMONOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Farg‘ona viloyati hududiy bo‘linmasi bosh mutaxassisi.**

# MILLIY SAYLOV QONUNCHILIGI MUSTAHKAMLANMOQDA

(Boshlanishi 1-betda).

Hamyurtlarimiz, ayniqsa, yoshlarning bu jarayonlarda faol ishtiroki ularda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi baland va sobit ekanini ko'rsatdi. Joriy yildagi saylovlar yangilangan Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o'tadi.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi beshtadan o'n ikkitaga, Oliy Majlis Senatiniki esa, o'n ikkitadan o'n sakkiztaga ko'paytirildi. Parlamentning ijro etuvchi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi.

Hokimlarning xalq deputatlari kengashlariga rahbarlik qilishi bekor qilindi. Davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida avval hokimlar vakolatida bo'lgan o'ttiz uchta vakolat mahalliy kengashlarga o'tkazildi. Bu esa siyosiy partiyalar va nomzodlar o'rtasida faol raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

Qayd etish zarurki, nomi qayd etilgan Konstitutsiyaviy qonun talablaridan kelib chiqib, Markaziy saylov komissiyasining barcha normativ-huquqiy hujjatlari to'la xatlovdan o'tkazildi. O'nga yaqin nizom, yo'riqnoma va boshqa hujjatlar yangidan ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ayrimlariga zarur o'zgartirishlar kiritildi.

Saylov kampaniyasining avvalida ko'pchilikni qiziqtiradigan savollar bo'ladiki, ularga bir yo'la javob berish foydadan holi bo'lmaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatda o'tkaziladi. Ushbu kengashlardagi deputatlik o'rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ilgari Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarida teng tartibda - oltmish nafargacha, tuman va shahar kengashlarida esa o'ttiz nafargacha deputatlik o'rni bo'lgan.

Saylov kodeksiga asosan Qonunchilik palatasi deputatligiga va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar ega.

Ta'kidlash o'rinliki, siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan va o'zining saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to'plagan hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovda ishtirok etishiga ijozat berilgan taqdirdagina, deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda saylov jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish – doimiy e'tibor qaratilayotgan eng muhim yo'nalishlardan biridir. Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati, Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimining so'nggi yillarda o'tkazilgan saylovlarda muvaffaqiyatli qo'llanilgani shular jumlasidandir.

Markaziy saylov komissiyasi va barcha darajadagi saylov komissiyalari o'z ishini hamisha ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik tamoyillariga binoan tashkil etib kelmoqda. Jurnalistlar uchun eshiklarimiz doim ochiq. Faqat ovoz berish yashirin! Buning yaqqol dalili – Markaziy saylov komissiyasi huzurida Matbuot markazi faoliyatining yo'lga qo'yilganidir.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli, dadil va izchil islohotlarning ustuvor vazifalari va asosiy yo'nalishlaridan biri – inson qadrini yanada yuksaltirish, uning huquqlarini, jumladan, saylov huquqini har tomonlama va keng ta'minlashdan iboratdir.

**Xakimjon TOJIYEV,**
**Sobirjon QO'CHQOROV,**
**Farg'ona Davlat universisteti**
**Harbiy ta'lim fakulteti**
**katta o'qituvchilari.**

# FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI DOIMIY TARZDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA

(Boshlanishi 1-betda).

Prezidentimiz tomonidan 2024 - yil 26 - avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-sonli Farmoni imzolandi.

Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam poydevor hisoblanmoqda.

Jumladan, Farmonni ko'rib chiqadigan bo'lsak, undagi asosiy jihatlar, fundamental asosga ega bo'lgan vazifalar belgilangan.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, davlat va jamiyat taraqqiyotida "uchinchi sektor"ning salohiyatidan to'laqonli foydalanish hamda ularning tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining yangi mexanizmlarini ro'yobga chiqarish, xorijdagi vatandoshlar, ularning uyushmalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlariga davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va gumanitar sohalarini rivojlantirishda ko'makdosh bo'lish uchun juda katta imkoniyatlar ochib berilmoqda.

Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga har yili kamida bir marotaba sohaviy va hududiy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o'tkazish vazifasi yuklatilmoqda.

Farmonda fuqarolik jamiyati institutlarining muhim ijtimoiy ahamiyatga molik dastur va loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jarayonlariga IT-texnologiyalar va dasturiy mahsulotlarni joriy qilish orqali sohani raqamlashtirish – yagona elektron platformani ishga tushirish nazarda tutilmoqda.

Bunda, fuqarolik jamiyati institutlarining muhim ahamiyatga molik loyiha va dasturlarining tanlovlari, ularga arizalar berish, ijtimoiy ahamiyatini aniqlash, g'oliblarni belgilash, moliyalashtirish, joriy va yakuniy monitoring kabi jarayonlarni to'liq raqamlashtirish belgilangan.

Eng asosiysi fuqarolik jamiyati institutlarining dastur va loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda inson omili minimallashtiriladi. Turli byurokratik to'siqlarga barham beriladi.

Sohada ko'zda tutilayotgan institutsional islohotlarda umumxalq va hududlar manfaatlarini inobatga olish mexanizmlarini yanada kuchaytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning vertikal tizimini, ochiq shaffof barcha tushunadigan yagona uslubini yaratish maqsad qilingan.

Tahlilga ko'ra, Farmonda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat vakillik organlari va ijro organlari tizimidagi o'rni va ahamiyati yanada kuchaytirilmoqda.

Eng birinchi navbatda asosiy institutsional o'zgarishlarda Oliy Majlis huzurida Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil qilinishi muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shaharida Jamoat fondining filiallari tashkil qilinmoqda.

Fond faoliyatini samarali boshqarishga mas'ul bo'lgan Parlament komissiyasiga Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining vakillari navbatma-navbat raislik qilishi kabi yangi tartib kiritilmoqda.

Institutsional o'zgarishlarda O'zNNTMA raisiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari (komissiyalar) majlislarida nodavlat notijorat tashkilotlarining vakili sifatida ishtirok etish huquqining berilishi hamda uning asosiy vazifasi belgilanishi muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim institutsional o'zgarish, mahalliy kengashlar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo'lgan maslahat guruhlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Ushbu vazifa davlat boshqaruvida mahalliy kengashlarning rolini oshirish, joylardagi muammolarni hal etish va muhim qarorlarni qabul qilish jarayonlarida fuqarolik jamiyati institutlari ifoda etadigan aholi qatlamlari manfaatlarini inobatga olinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, davlat organlari, ayniqsa ijro organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari orasidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi.

Bu esa, xalq xizmatidagi davlat organlarining to'liq shakllanishida dasturilamal bo'ladi.

Shunga ko'ra, Farmonda davlat organlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ikki oylik muddat berilmoqda.

Mana shu vaqt oralig'ida o'zlarining huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini qayta tashkil etishlari lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, "Yuksalish" harakatining so'roviga asosan har bir davlat organi o'zining huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatiga doir ma'lumotlarni taqdim etib borishi vazifasi yuklangan.

Boshqacha so'z bilan aytganda, mazkur masala ijrosi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilmoqda.

Farmonda fuqarolik jamiyati institutlariga iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirish belgilanmoqda.

Ayniqsa, davlat organlariga fuqarolik jamiyati institutlarining tashabbusli ijtimoiy sheriklik loyihalarini bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 1000 baravarigacha, ya'ni 340 mln. (1 oktabrdan 375 mln.) so'mgacha bo'lgan mablag'larni tanlovlarsiz moliyalashtirish huquqi berilmoqda.

Bu o'z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlarining sohaviy va tarmoq loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlashda nogironlar, faxriylar, xotin-qizlar va bolalar tashkilotlarini tuzishning yanada yengillashtirilgan tartibi joriy qilinayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab bu kabi tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun olinadigan davlat boji miqdori 2 baravarga kamaytirildi.

Shuningdek, xayriya faoliyati sohasida homiylik tashkilotlarining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslarga ajratadigan mablag'larning soliq solinmaydigan miqdori 15 mln. so'mdan 34 mln. so'mga yoki 2 karraga oshirildi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarining muhim ahamiyatga molik loyihalari davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari shaklida moliyaviy qo'llab-quvvatlanganda, loyiha doirasida to'lanadigan daromad va ijtimoiy soliqlar miqdori 3 yil muddatga 50 foiz miqdorida kamaytirildi.

Farmonning muhim jihatlaridan biri fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining jamiyat oldidagi xizmatlarini rag'batlantirishning mexanizmlarini belgilab berildi.

Yil yakunlarida "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlash, "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofotini ta'sis etish, "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yoritish yo'nalishida nominatsiya tashkil etish vazifalari belgilab berildi.

Albatta Farmonning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi sa'y-harakatlarning yarmi hisoblanadi, Farmon bilan belgilangan vazifalarning to'liq ijrosi ta'minlanganda sifat jihatdan yangidan yangi marralar ko'zga tashlanadi.

Demak, ushbu Farmon fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada kuchaytirish, mazkur institutlarning salohiyatlaridan jamiyat hayotining turli sohalarini rivojlantirishda unumli foydalanish hamda zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish kabi xalqchil siyosat davom etishini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan 800 ta nodavlat notijorat tashkilotlari, 1062 ta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, 80 ga yaqin ommaviy axborot vositalari, jamoat kengashlari, maslahat guruhlari, jamoatchilik komissiyalari va boshqa shu kabi turli jamoat tuzilmalari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu esa mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish davlat e'tiborida ekanligi va bu e'tibor kun tartibidan hech qachon tushmasligidan dalolat beradi.



# KORXONADA YANGI TASDIQLANGAN "ODOB-AXLOQ KODEKSI"

## VA QONUNCHILIGIMIZDAGI YANGILIKLAR, O'ZGARTIRISHLAR BO'YICHA O'TKAZILGAN SEMINAR TO'G'RISIDA

**Xabaringiz bor, jamiyatimiz "Odob-axloq kodeksi"ning 6-bobi, ya'ni "Xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari"ga o'zgartirishlar kiritilib, korxona tarkibiy bo'linmalariga tarqatilib berildi. Mazkur kodeks bilan ishchilarni yaqindan tanishtirish borasida o'tkazilgan seminarda shuningdek, ichki intizom hamda so'nggi vaqtlarda qonunchiligimizga kiritilgan o'zgartirishlar, yangiliklar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berib o'tildi.**





Seminarni boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya bo'yicha o'rinbosari Azamat Ismoilov o'zining kirish so'zi va xodimlar xizmat faoliyatidagi vazifalar va huquqlari to'g'risidagi nutqi bilan ochib berdi. Uning so'zlariga ko'ra "Odob-axloq Kodeksi"ni barcha ishchi-xodimlar bilishlari zarur. Shuningdek, korxona ichki tartib qoidalariga amal qilishlari lozim. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulotlar sifatini oshirishga ham ichki intizom beixtiyor bog'liqdir.

Shu o'rinda, seminarda boshqaruv raisi maslahatchisi E.Abdullayeva, Yuridik bo'limi boshlig'i N. Maxkamova va o'rinbosari M. Maxmudov, Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi I. Abduvohidovlar mavzuga oid ma'ruzalar qildilar.

Eslatib o'tamiz, kodeks Odob- axloq qoidalari (11 bob), Nizomi (5 bob), Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil qilish va Odob-axloq komissiyasining tarkibi hamda Jamiyat xodimlari tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish SXEMASIdan tarkib topgan.

**O'z muxbirimiz.**


# Avtomobil transporti xodimlari kuni!

**Hurmatli haydovchilar, avtomobil transporti sohasida jonbozlik ko'rsatayotgan xodimlar! Barchangizni "Farg'onaazot" AJ ma'muriyati nomidan kasb bayramingiz bilan samimiy muborakbod etamiz!**

Ushbu bayram avtotransport vositalarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan barcha insonlar – haydovchilar, mexaniklar, avtotransport xizmatlari rahbarlari, transportni tashkil etish va texnik xizmat ko'rsatishda ishtirok etayotganlar kunidir.

Ta'kidlash lozimki, korxonamizning muvaffaqiyatli ishlashi uchun avtotransport vositalarining ahamiyati beqiyosdir. Bu kasb yuqori fidoiylik, mahorat va mas'uliyatni talab qiladigan murakkab kasbdir.

Bayram munosabati bilan korxonaning Avtotransport sexida mehnat qilib, transport sohasida faoliyat yuritayotgan, korxona rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan zahmatkashlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Soha mutaxassislariga – xavfsiz va ravon yo'llar, ishonchli avtoulovlar, sog'lik, baxt va farovonlik tilaymiz!


# Huquqbuzarlik profilaktikasi takomillashtirilmoqda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2024-YIL 7-OKTABRDAGI 972-SONLI QARORI BILAN "HUQUQBUZARLIKLAR VA JINOYATLARNING OLDINI OLISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR QABUL QILINISHI MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSIGA HAMDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA"GI QONUNI TASDIQLANGAN.

Qarorda ta'kidlanishicha keyingi yillarda mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga mazkur islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning oldini olish, shuningdek fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyat va qonunga hurmat tuyg'usini singdirish borasidagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga sog'liqni qisqa muddat buzilishi bilan bog'liq badanga yengil shikast yetkazish bilan bog'liq jinoiy qilmishni jinoiy jazo tarkibidan chiqarib ma'muriy huquqbuzarlik toifasiga o'tkazishni, shuningdek mazkur huquqiy normani yangi tavsifiy belgilar bilan to'ldirishni, yarashuv institutiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar doirasini kengaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 109-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan, sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bilan bog'liq jinoiy qilmishni jinoiy jazo tarkibidan chiqarib, uni ma'muriy huquqbuzarlik toifasiga o'tkazilgan.

Eski normaga ko'ra, ushbu huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng takroran sodir etilgan taqdirda bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan edi.

Shuningdek, ushbu modda to'ldirilib yengil tan jarohati yetkazish diniy taassublar zamirida, bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud shu guruh manfaatlarini ko'zlab, qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan bo'lsa bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 52-moddasi uchinchi qism bilan to'ldirilgan va qasddan yengil tan jarohati yetkazish, bu harakat sog'likning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan taqdirda bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi deb belgilangan. Bunday shikastlarga uncha ahamiyatli bo'lmagan, olti kundan ortiq muddatga cho'zilmagan tez o'tib ketuvchi shikastlar taalluqlidir. Bunday shikastlarga yaralar, dog'lar, qon oqishlar va hokazolar kiradi.

Badanga shikast yetkazish deganda, boshqa odam sog'ligiga uning erkiga qarshi uning to'qimalari va a'zolarining yaxlitligi yoki fiziologik vazifalarini tashqi muhit ta'siri ostida yoxud aybdor tomonidan jismoniy ta'sir ko'rsatish bilan ishdan chiqarish orqali huquqqa xilof zarar yetkazishni tushunish lozim. Zararning og'irlik darajasi Sud tibbiy ekspertizasi xulosasiga asosan aniqlanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 212-moddasining birinchi qismi yangi tahrirda bayon etilib tuhmat, haqorat qilish, fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish, fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, yengil tan jarohati yetkazish, oz miqdorda talon-taroj qilish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, topib olingan mol-mulkni yashirish, ekinzorlarni payhon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish, transport vositalarining ichki jihozlariga shikast yetkazish, transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi, haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi, mayda bezorilik, o'zboshimchalik nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, qonun aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga, mamlakatimizda kriminogen vaziyatning yaxshilanishiga hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha yarashuv institutining ta'sir etish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Mahmud QAYUMOV,**
**Yuridik bo'limi boshliq o'rinbosari.**





# НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАБОТАЮЩЕЙ МОЛОДЁЖИ

## ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРИОБРЕТЕНИЯ ПРЕСТИЖНОЙ ПРОФЕССИИ

**На современном этапе развития система высшего образования Узбекистана претерпевает важные институциональные изменения. В рамках административной реформы успешно функционируют филиалы иностранных ВУЗов, где на основе передового зарубежного опыта получает образование молодёжь нашей страны. Одним из таких высших учебных заведений является Корейский международный университет в Фергане. Сегодня в условиях конкуренции и учитывая запросы рынка KIUF открывает заочные формы обучения, тем самым предоставляет возможность для работающей молодёжи получить высшее образование. Этому также способствует гибкая система скидок и преференций, предоставляемая абитуриентам при составлении контракта на образование.**

В целях доведения этой и другой важной информации до молодёжи в начале октября в стенах нашего предприятия состоялась встреча с представителями Корейского международного университета в Фергане (KIUF), ставшая важным шагом в развитии сотрудничества между предприятием и одним из престижных учебных заведений региона.

Встреча, организованная сектором подготовки кадров управления по работе с персоналом, позволила сотрудникам предприятия познакомиться с историей создания KIUF, его преподавательским составом, технической и научной базой.

Представители KIUF — Дармонов Дилмурод, Парк Таекунг и Турдиев Билол — подробно рассказали о университете, подчеркнув его сильные стороны, такие как современная материально-техническая база, высококвалифицированные преподаватели и комфортные условия для обучения студентов.

Особый интерес у присутствующих вызвал видеоролик, который наглядно показал научно-учебный потенциал KIUF и комфортные условия, созданные для студентов.

В ходе встречи представители университета рассказали о возможностях сотрудничества с АО "Farg`onaazot" в сфере подготовки высококвалифицированных специалистов для предприятия. Они выразили надежду на плодотворное сотрудничество, которое позволит обмениваться опытом и знаниями, способствуя развитию как самого предприятия, так и университета.

В конце встречи представители KIUF ответили на вопросы работников предприятия, касающиеся учебных программ, условий обучения и перспектив дальнейшего взаимодействия.

Визит представителей KIUF стал важной вехой в укреплении связей между университетом и предприятием, открывая новые горизонты для сотрудничества, которое позволит обеспечить предприятие квалифицированными специалистами, а KIUF – получить практический опыт для совершенствования учебных программ и адаптации их к современным требованиям рынка труда.

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ОТМЕТИЛИ ДЕНЬ УЧИТЕЛЕЙ И НАСТАВНИКОВ

